

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

"Bola nutqini atrof-muhitni tanishtirish orqali rivojlantirish "

Osiyo Xalqaro Universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi
Shukurova Madina O'ktamovna,

Maktabgacha ta'lism yo'nalishi talabasi
Asatova Dilyayra Bobirovna

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lism tashkilotida bolalarning nutqiy faoliyati rivojlanishi uchun tevarak-atrofni tanishtirish orqali lug'at boyligini oshirishga erishish

Kalit so'zlar: Emotsiya.tevarak-atrof, nutq, monologik nutq, diologik nutq, hikoya, ertak, she'r, tez aytish, ko'rgazmali metod,suhbat metodi

Maktabgacha ta'lism tashkilotining asosiy vazifalaridan biri bolalaming o'z xalqining badiiy tilini o'zlashtirib olishlari natijasida ularning to'g'ri og'zaki nutqini shakllantirishdir. Bu umumiy vazifa quyidagi maxsus vazifalardan iborat: nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lug'atni boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to'g'riligini takomillashtirish, og'zaki (dialogik) nutqni shakllantirish, ravon nutqni rivojlantirish, badiiy so'zga qiziqishni tarbiyalash, savod o'rgatishga tayyorlashdir. Bolalar nutqini rivojlantirishni tegishli dastur asosida amalga oshirish zarur. Ushbu dasturda atrof-olam haqidagi bilimlar doirasi va lug'at hajmi, har bir yosh bosqichida bolalarda shakllanishi lozim bo'lgan nutqiy mahorat va ko'nikmalar belgilangan bo'lib, u shaxsning muayyan sifatlarini (kirishimlilik, xushmuomalalik, bosiqlik) tarbiyalashni ko'zda tutishi kerak. Nutqni rivojlantirish dasturi ilmiy asoslarga qurilgan bo'lib, u butun mazmuni bilan bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Nutqni rivojlantirish dasturi bola faoliyatining o'quv, o'yin, mehnat va maishiy kabi shakllarida amalga oshiriladi. Jamoat tarbiyasi sharoitida ta'lism - bola nutqini shakllantirishning yetakchi vositasi hisoblanadi. Ona tilini o'qitish - bolalaming bilish qobiliyatini rejali, aniq maqsadni ko'zlagan holda rivojlantirish, ularning atrof-olam haqidagi eng oddiy bilimlami va tegishli lug'atni o'zlashtirish, nutqiy mahorat va ko'nikmalami shakllantirish jarayoni hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalami o'qitishning asosiy shakli - mashg'ulotlar. Didaktik maqsadlar bo'yicha quyidagi mashg'ulotlar turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:
- yangi materialni ma'lum qilish mashg'uloti; - bilimlar, mahorat va

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMUY ONLAYN KONFERENSIYA

ko‘nikmalami mustahkamlashga oid mashg‘ulotlar; - bilimlami umumlashtirish va tizimlashtirishga oid mashg‘ulotlar; - yakuniy mashg‘ulotlar yoki hisobtekshimv (nazorat) mashg‘ulotlari. 1 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqinirivojlantirishgadoir mashg‘ulotlami didaktik o‘yinlar, ermak o‘yinlar, sahna ko‘rinishlari shaklida o‘tkazishga tavsiya beriladi . Ular nafaqat ko‘ngilochar tusga, balki albatta ta’lim tusiga ega bo‘lishi zarur. 3 yoshdan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirish emotsional tusga ega bo‘lishi lozim. Bunda ko‘rgazmaviylik, o‘yin usullari va didaktik o‘yinlami keng qo‘llash zarur. 5 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqini rivojlantirishga doir mashg‘ulotlar muayyan vazifaga ega - ya’ni u bolalarni mакtabda o‘qishga tayyorlashni ko‘zda tutadi. Mashg‘ulatlarda pedagog nutqiy vazifalardan tashqari o‘quv faoliyatini yo‘lga qo‘yish qobiliyatini shakllantirish (diqqat-e’tiborli bo‘lish, pedagog topshirig‘ini tinglash, tushunish va uni aniq bajarish, bolalar jamoasi oldida fikr oldira olish, tengdoshining javobiga oddiy baho bera olish va h.k.) vazifasini ham bajara oladi. Bola maktabgacha ta’lim muassasasida egallagan eng yaxshi fazilatlami oila sharoitida davom ettirib, oilada egallagan eng yaxshi fazilatlami esa maktabgacha ta’lim muassasasida qo‘llansa, istalgan ijobiy natijalarga erishish mumkin. Tarbiyachilar oila tarbiyasiga doir tajribalaridagi ijobiy ishlami ko‘ribgina qolmay, balki uni qo‘llab-quwatlash va shu asosida ota-onalar e’tiborini bola tarbiyasida hali hal etilmagan vazifalarga qaratishlari lozim. Yuqoridagi ishlami rejalahtirish, tashkil etish va ularga rahbarlik qilishda mudira javobgar shaxs hisoblanadi. Ota-onalar bilan ishslash bo‘yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiylar va guruhiy majlislar, ota-onalar uchun ochiq eshiklar kuni, suhbat va maslahatlar, otaliq tashkilotlarida ko‘rgazmalar tashkil etish va konsertlar qo‘yib berish, shuningdek, bu tadbirlami o‘tkazish vaqtлari va unga mas’ul bo‘lgan shaxslar belgilanishi mumkin. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlaming mavzulari va mazmuni tarbiyachi-metodistning rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi. Ota-onalar bilan ishslash bo‘yicha juda ko‘p ishlami tarbiyachi - pedagog amalga oshiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o‘zgarishlami hammadan ko‘proq ko‘radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo‘ladi. U ota-onalarga bolalar tarbiyasida ko‘proq nimalarga e’tibor berish kerakligi, ulami maktab ta’limiga tayyorlash, sog‘lig‘ini saqlash, ovqati va kun tartibini to‘g‘ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar beriladi. 2. Maktabgacha ta’lim muassasasining ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishlar mazmuni. Ta’lim muassasalari va oiiia o‘rtasida hamkorlik o‘matishda mudira, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirot etishlari lozim.

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin. Ota-onalar bilan ishslashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalaniladi: suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim ota-onalami mакtabgacha ta'lismuassasasiga taklif etish, alohida esdaliklar va ko'chma papkalardan foydalanish. Bolaning uyiga borishdan ko'zlangan maqsad oila sharoiti, bolaning oiladagi xulqi qiziqishlari, ota-onasi va oila a'zolari bilan tanishish, shuningdek, ota-onalami bola tarbiyasining samarali usullari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalami o'rganib, ommalashtirish hisoblanadi. Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do'st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga har gal borishidan awal o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o'ylangan bo'lishi kerak. Suhbat shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-ona bir-birlarini yaxshi tushunishlari, ular o'rtasida ishonchli aloqa o'matilishi darkor. Oilaga borishdan oldin tarbiyachi shu oila to;g'risida (ota-onalaming fe'l-atvori, oilaviy munosabatlar, bolaning rivojlanish darajasi) to'g'risida ma'lum tasawurlarga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar hurmati va ishonchini qozonmoq uchun awal ota-onalarning bolaning ijobiy fazilatlari to'g'risida fikr, mulohazalarini bilib oladi va bolaning uyidagi hayotini qanday tashkil etish kerakligi, unga nimalami o'qib, hikoya qilib berish mumkinligi, bolaning kun tartibi, uni oila mehnatida qatnashtirish, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ta'limg-tarbiya ishlari mazmuni va usullari bo'yicha tavsiyalar bera oladi. Albatta, tarbiyachining oila bilan olib boradigan isbida bolaning yoshi, imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi. Oilaga borishning maqsad va mazmuni tarbiyachining rejasi va hisobotida, kundalik daftarida aks ettirilishi kerak. Tarb yachi har bir bolaning oilasiga yiligi kamida 2 marta borishi kerak. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlaming mazmum rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar bирgalikda muhokama qиunishi taqozo etiladi. Masalan: bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalaming vazifasi, bolalarni mакtabga tayyorlash to'g'risidagi qonunlar; mакtabgacha tarbiya muassasalarining yillik ish rejasi to'g'risida; ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir. Bu masalalami jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiylari, majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi. Ota-onalar majlisi. Ota-onalar majlisiga mакtabgacha ta'lismuassasidagi hamma guruh bolalarining ota-onalari,

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA**

parallel guruhlar otaonalari va bitta guruh bolalarining ota-onalari taklif etilishi mumkin. Umumiy majlisda ota-onalami maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari, shu yilgi rejalar, ota-onalar qo'mitasining faoliyati, oila tarbiyasidagi ilg'or tajribalar bilan tanishtiriladi. Bunda majlisda mudira yoki metodisttarbiyachi ma'ruza qiladi, ota-onalar so'zga chiqishadi, bolalar gapirishadi. Bular ta'lism-tarbiya ishidagi yutuq va kamchiliklami aniqlab olishga imkon beradi, oila va jamoatchilik aloqasini mustahkamlaydi, ota-onalaming o'z bolasining tarbiyasi uchun javobgarligini oshiradi, ularda maktabgacha ta'lism muassasasiga qiziqish uyg'onadi. Guruhdagi ota-onalar majlisida mazkur yoshdagi bolalaming ota-onalari uchun dolzarb bo'lgan masalalar muhokama qilinadi. Masalan, umumiy majlis mavzusi «Bolalarga axloqiy tarbiya berishda oilaning roli» bo'lsa, o'rta guruhda o'tkaziladigan majlisda bu mavzu murakkablashtirilib, «Bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalashda ta'lism muassasalari va oilaning birgalikdagi ishlari», «Bolalarda kattalarga hurmatni tarbiyalash» va hokazo bo'lishi mumkin. Ota-onalar uchun tayyorlangan ma'ruzani, bolalar ishini, tegishli mavzudagi kinofilm, diapozitivlar ko'rish bilan qo'shib olib borish mumkin. Bolalar hayoti, faoliyati to'g'risidagi misollardan foydalanganda ijobjiy materiallar ko'proq bo'lishi kerak, salbiy faktlami gapirishda ehtiyyotkorlik va odob doirasidan chetga chiqmaslik, tanqid qilinuvchilaming nomlari ko'rsatilmasligi lozim. Tanqidiy mulohazalar majlisdan keyin yakka tartibdagi suhbat orqali ota-onalarga yetkazilishi, bola tarbiyasidagi xato va kamchiliklami bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalar taklif etilishi mumkin. Yilning oxirida o'tkaziladigan gumh majlisida ota-onalarga bir yil mobaynida amalga oshirilgan ta'lism-tarbiya ishlari va kelgusi yilning rejalar, haqida gapirib beriladi. Bu majlisda faol ota-onalar ham hisobot beradilar va faollaming yangi tarkibi saylanadi. Ota-onalar burchagi va ko'rgazma tashkil etish. Ota-onalar burchagi ulami tarbiyaga oid yangiliklar va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jumallar, rasmlar, bolalaming ishlari, bolalar ovqatining xillari, bolaning uyidagi va oiladagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e'lonlar joylashtirila boriladi. Burchak vaqtı-vaqtı bilan tarbiya vazifasiga qarab o'zgartirib turiladi. Pedagogik bilimlami targ'ib qilish bo'yicha tashkil etiladigan ko'rgazmalar ko'pincha ota-onalar konferensiyalari, majlislari, konsultatsiyalar oldidan tashkil qilinadi. Unda xalq ta'limi to'g'risidagi qonun va qarorlar, maktabgacha ta'lism muassasalari tarmoqlari va undagi tarbiyalanuvchilar sonining o'sishini ko'rsatuvchi diagrammalar, bolalar bilan olib boriladigan ta'lism - tarbiya jarayonlari, bolalar hayotini aks ettiruvchi

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA

tasvirlar, kitob va o‘yinchoqlar, bolalaming ishlari o‘rin oladi. Ota-onalar burchagi oila bilan olib boriladigan ishning ko‘rgazmali usuli, uning did bilan bezatilishiga alohida e’tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, ota-onalarga tarbiya to‘g‘risidagi filmlar namoyish etila boriladi, bular ko‘pincha ota-onalami qiziqtiradigan bahslar boshlanishiga sababchi bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.D.R. Babaeva “Nutq o‘sirish nazariyasi va metodikasi” T.: “Barkamol avlod fayz” 2018y. Darslik.
2. Sodiqova Sh.A.Maktabgacha pedagogika.T.:Tafakkur bo’stoni 2013y.
- 3.”Ilk qadam” davlat dasturi (takomillashtirilgan), -T.: 2022 y.
- 4.Qodirova F.R, Toshpo’latova Sh.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.